

MUSTAQILLIK YILLARIDA FARG'ONA VILOYATI RADIOSI FAOLIYATI

*Kimsanboyev Raxmonjon Valizoda
Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida Farg'ona vodiysi radiosining faoliyatiga doir ayrim masalalar ilmiy asosda yoritilgan. SHuningdek, maqolada Farg'ona vodiysidagi Namangan, Andijon va Farg'ona viloyatlari radiolari va undagi dasturlar g'amda suxandonlar to'g'risidagi ma'lumotlar atroflicha o'r ganilgan va tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: radio, radiodastur, radioeshittirish, viloyat, suxandon, efir, radiostudiya, radiojurnalist

Bugungi kunda respublika ommaviy axborot vositalari mustaqil O'zbekiston xalqining milliy o'zligini anglashini yanada rivojlantirish yo'lida katta vazifalarni bajarmoqda. Xalqni ma'naviy-estetik ruhda tarbiyalash va yangi turmush tarzini shakllantirishda kuchli vosita sifatida ajralib turibdi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston radiosida ham boshqa sohalar kabi katta o'zgarishlar ro'y berdi. Davlat taasarufidagi radio kanallardan tashqari nodavlat radiokanallari vujudga keldi. SHuningdek, viloyat radiolari rivojiga alohida e'tibor qaratildi. Eshittirishlar hajmi ham keskin ravishda ko'paydi. Jumladan, 2001 yilda O'zbekiston radiosining bir kunlik eshittirishlari hajmi 90 soatga yetdi¹.

2017 yil O'zbekiston Respublikasida «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» deb e'lon qilindi hamda 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi qabul qilindi. Xalq bilan muloqot o'rnatishda Ommaviy axborot vositarining alohida o'rni mavjudligi ta'kidlandi [1.27].

2017 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra ro'yxatga olinib, davlat reestriga kiritilgan ommaviy axborot vositarining umumiyligi soni 1514 tani tashkil etadi. Ulardan 691 tasi gazeta, 309 tasi jurnal, 15 tasi axborotnoma-byulleten, 4 tasi axborot agentligi, 65 tasi televidenie, 35 tasi radio, 395 tasi veb-saytlardir. SHu bilan birga nodavlat ommaviy axborot vositarining soni ham yildan yilga oshib bormoqda. Jumladan, 1991 yilda 395 ta OAV barchasi davlat tasarrufida bo'lga bo'lsa 2001 yilga kelib nodavlat OAV soni 110 taga yetdi, 2017 yil 1 yanvar holatiga ko'ra bu ko'rsatkich 975 tani tashkil

¹ Темирова М, Имомназарова Й. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда радио: ривожланиши, йўналишлари ва трансформацияси. – Т., 2017. – Б. 7.

etmoqda. Boshqa so'z bilan aytganda hozirda respublikada nodavlat OAV jami ommaviy axborot vositalarining salkam 63.4 foizini tashkil etmoqda [2].

Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasida va barcha viloyatlarda radiostudiylar ishlab turibdi. Ularning ba'zilarini tashkil topganiga 80 yildan oshdi, boshqalariga 50 yil bo'lmoqda². Bu radiostudiylar tinglovchilarga o'zbek, tojik, qirg'iz, qozoq va rus tillarida eshittirishlar berishmoqda. Har kuni 24 soatni tashkil qiluvchi dasturlarda eng so'nggi xabarlardan tortib, viloyatlarning iqtisodiy-ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan o'zgarishlar, yutuqlar, bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liq muammolar va ularni yechish yo'lidagi izlanishlar haqida hikoya qilinmoqda.

Viloyat radiolari dasturlaridan "Farmon va ijro", "Islohot odimlari", "Tadbirkorlik - davr talabi", "Bozor iqtisodiyoti va bozor", "Hazrati inson", "Elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak", "Ayol bilan olam munavvar", "Ona tilim – jonu dilim", "Inson va qonun", "Ma'rifat" singari ruknlar muhim o'rinni olganligini ta'kidlash kerak. Radiojournalistlar islohotlar samarasi, mustaqillikni mustahkamlashda ibrat bo'layotgan vatandoshlarimizning jo'shqin mehnati, shahar va qishloqlarimizda tashkil topayotgan qo'shma hamda kichik korxonalarining faoliyati, madaniyat va ma'rifatning yuksalayotganligi, milliy mafkura, haq-huquqlar, urf-odatlar qayta tiklanayotganligi haqida maroq bilan hikoya qilmoqdalar.

Namangan va Farg'ona viloyatlari radiojournalistlarining qo'shnn Qirg'iziston va Tojikistoi Respublikalarinnng O'sh, Jalolobod, Leninobod viloyatlari tele-radiojournalistlari bilan hamkorlikda olib borgan ishlari diqqatga sazovor. Ta'bir joiz bo'lsa, bu eshittirishlarnn do'stlik radio ko'prigi, deb atash mumkin. Ular tinglovchilarda yaxshi taassurot qoldirmoqda. Eshittirishlar davomida Farg'ona vodiysi va uning atrofida istiqomat qiluvchi o'zbek, qirg'iz, qozoq, uyg'ur millatiga mansub fan va madaniyat arboblari, viloyat, shahar va tuman hokimlari, tadbirkor va ishbilarmonlar, fuqarolarga so'z berilmoqda. Ular radiominbar orqali O'zbekistondagi tinchlik va osoyishtalik barqarorligi to'g'risida, Markaziy Osiyo xalqlarining do'stligi va hamkorligi, kundalik hayoti haqida, ildizi, urf-odatlari azaldan bir ekanligi, qud-andachiligi, qondosh - jondoshligi haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirib, yutuqlari, ish tajribalari bilan o'rtoqlashmoqdalar.

Viloyat radiolarining rivojiga, eshittirishlar saviyasining oshishiga barakali hissa qo'shayotgan, fidoyilik ko'rsatayotgan jurnalistlardan Buxoro viloyati radiosning Nasrullo Fozilov, Xadicha Ramazonova, Andijon viloyati radiosining Muhammadjon Abdukarimov, Odiljon To'xtanazarov, Namangan viloyati radiosininng Zokirjon Yigitaliev, Ilhomjon Jumanazarov, Farg'ona viloyati radiosining Abdumutal Qodirov, O'rmonjon Oymatov, Matluba Azamatova, Qashqadaryo vidoyati radiosining

² Темирова М, Имомназарова Й. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда радио: ривожланиши, йўналишлари ва трансформацияси. – Т., 2017. – Б.11.

Madamin Avliyoqulov, Norboy Karimov, Jizzax viloyati radiosining Omonboy Yo'ldoshev singari jurnalnislari nomlarini tilga olish mumkin[3.20-23].

Namangan viloyati Uychi rayon gazetasigi qarashli radio axborot bo'limi bor. Bu yerda haftada uch marta dushanba, chorshanba va juma kunliri soat 19 din 15 minut o'tgandan 19.30 ga qadar eshittirishlar berilmoqda. Tinglovchilarga 15 daqiqali eshittirish davomida muhim yaigiliklar yetkazilgan³.

Namangan viloyati Uychi rayon gazetasigi qarashli radio axborot bo'limida avvallari suxandon-kotiba ish o'rin bor edi. 1992 yilda qisqartirib yuborildi va muharrir, kotib, suxondon vazifalarini muharrirning o'zi bajara boshlagan. Bundan tashqari, rayon radiolari bino bilan ta'minlanishi murakkab ahvolda edi. Rayon radiosи markaziy pochta binosining ikkinchi qavatidagi kichkinagini xonada joylashgan. Eshittirishlar olib borish uchun sharoit yetarli deb bo'lmaydi. Magnitofon, reportyor, mikrofon, tasmalarsiz efirga chiqish qiyin. SHunday bo'lsa-da, eshittirishlar to'g'ridan-to'g'ri havo mavjlariga uzatilmoqda [4.42-43].

O'zbekiston radiosida "Viloyat ovozi" nomli viloyat radiolarining 30 daqiqali eshittirishlari bor. O'zbekiston televideniesida ham viloyat televidenielarining ko'rsatuvlari namoyish etilib, ular o'rtasida tanlovlар o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Vodiy radioeshittirishlari xususida to'xtaladigan bo'lsak, Farg'ona radiosи har kuni soat 14.00 dan 15.00 gacha, payshanba kuni soat 12.30 dan 13.00 gacha, Andijon radiosи har kuni soat 16.00 dan 17.00 gacha, payshanba, shanba, yakshanbadan tashqari, har kuni 12.30 dan 13.00 gacha, Namangan radiosи har kuni soat 17.00 dan 18.00 gacha, dushanba, chorshanba kunlari kunduz soat 10.00 dan 10.30 gacha va payshanba kuni soat 10.00 dan 10.45 ga qadar eshittirishlar olib boradi. SHunisi taajublanarligi, O'zbekiston radiosи orqali barcha uchun qiziqarli eshittirishlar efirga chiqayotgan bir paytda viloyat radiosи ham o'z eshittirishlarini boshlaydi⁴.

Andijon radposining "Nigoh", "Mehnat gashti" axborot-musiqiy eshittirishlari tinglovchilarga ma'qul tushmoqda. Namangan radiosining "Yoshlik", "Kulgu bozori", "Axloq-odobi bilan" singari turkum eshittirishlari bor. Bu eshittirishlar efirga uzatilgach, ikkinchi haftada yana bir bor takrorlanadi. Ko'rib turganingizdek, vaqtan yutqazilmoqda. SHuningdek, «15 daqiqa» nomli eshittirish ham bir kunda ikki martadan tinglovchilnr diqqatiga havola etiladi. Namangandan eshittirishlar 8.45, Andijondan, Farg'onadan esa 7.30 minutdan boshlanadn. Ularning vaqtি har xil. Andijon viloyati Asaka rayon radio axborot tahririysi 1992 yilda rayon bosmaxonasi binosida "Asaka hayoti" ro'znomasi bilan baqamti joylashgan. 1992 yilda rayon bo'ylab o'rnatilgan 26 ming radionuqtadan 19 mingi radio eshittirishlarni to'g'ridan-

³ Камбаров М. Радиога нега эътибор кам? // Ўзбекистон матбуоти. – 1994. - №3. – Б.42.

⁴ Темирова М, Имомназарова Й. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда радио: ривожланиши, йўналишлари ва трансформацияси. – Т., 2017. – Б.18

to'g'ri oladi⁵. 1990 yillarning boshlarida radioning daromadsizligidan radio axborot tahririyatida suxandon lavozimi yo'qotildi. Muhammarr axborot yig'ish uchun joylarga chiqishi bilan birga ularni mashinkalashi hamda suxandonlik qilishi kerak edi.

1992 yilda Farg'ona viloyati Quva rayon radioeshittirishlari "Quva hayoti" ro'znomasining bo'limlaridan biri sifatida ish yuritgan. Radio axborot bo'limi o'z eshittirishlarini haftaning uch kunida 15-20 daqiqadan olib boradi. Asaka rayon radioeshittirishlaridan farqli o'laroq, bo'lim o'z suxandoniga ega bo'lган [5.32-33].

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki mustaqillik yillarida viloyat radiolari faoliyatida ham tubdan burilish bo'ldi. Jumladan eshittirish dasturlarining mazmun-mohiyati va g'oyasida milliylik yaqqol sezilarli darajada o'zgardi. Aslini olganda ham ommaviy axborot vositalarining vazifasi ham shundan iborat edi. Butun respublikada bo'lGANI kabi viloyat radiolari ham o'zining bu boradagi vazifasini to'laqonli, balki ortig'i bilan ado eta oldi deyishimiz mumkin.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида // Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами. – 2017. - №6(766). – Б.27.
2. Миллий оммавий ахборот воситалари, нашриётлар ҳамда матбаа соҳасининг ривожланиш тенденциялари ва истиқболлари тўғрисида матбуот анжумани пресс – – релизи // http://www.api.uz/img/struct/63/31.01.2017_press-reлиз.pdf
3. Исоқов А. Кўрсатув ва эшитттиршлар савиасини ошириш йўлида // Ўзбекистон матбуоти. – 1998. - №1. – Б.20-23.
4. Қамбаров М. Радиога нега эътибор кам? // Ўзбекистон матбуоти. – 1994. - №3. – Б.43.
5. Эгамназаров А. Манзиллар турли, муаммолар бир // Ўзбекистон матбуоти. – 1992. - №11-12. – Б.32-33.
6. Ibragimovna, R. S. (2020). REFORMS IN THE FIELD OF MEDICINE IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE. Medical care, 24(46), 73-7.
7. Рахматуллаева, С. И. (2020). ЎЗБЕКИСТОНДА САЛОМАТЛИК МАСАЛАЛАРИ. In ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ (pp. 103-107).

⁵ Санжар С. Радио кучи // Ўзбекистон матбуоти. – 2006. - №5. – Б. 10-11.

8. Temirova Mashhura Muhammадaminovna (2022). O'ZBEKISTON RESPULIKASI ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA KITO BXONLIKNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR (Farg'onan viloyati IIB misolida). Research Focus, (Special issue 1), 52-55.
9. Темирова, М. М. (2020). НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ СОЗДАНИЯ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТАШКЕНТСКОЙ РАДИОСТАНЦИИ (1926-1930 гг.). In Культура и гуманитарные науки в современном мире (pp. 110-116).
10. Темирова, М. М. (2020). COBET ҲУКУМАТИ ДАВРИДА РАДИОНИНГ КОММУНИСТИК МАФКУРА ТАРФИБОТИ ВОСИТАСИГА АЙЛАНТИРИЛИШИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(2).
11. 17. Темирова, М. М. (2016). Кўқон хонлигининг савдо алоқалари (Шарқий Туркистон мисолида). Молодой ученый, (3-1), 4-5.
12. ТЕМИРОВА, М. HISTORY OF RADIOIFICATION INFRASTRUCTURE IN UZBEKISTAN. UNIVERSITETI XABARLARI, 2019,[1/1] ISSN 2181-7324.